

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY MA'LUMOT OLİSH BO'YICHA  
60410100 - IQTISODIYOT YO'NALISHIGA KIRISH SINOVLARI DASTURI  
VA BAHOLASH MEZONI**

**«IQTISODIYOT»  
fanidan**

**DASTUR**

**Buxoro – 2025**

**Tuzuvchilar:** D.Sh.Yavmutov – BuxDU, Iqtisodiyot kafedrası professori, i.f.d.  
A.J. Abdulloyev – BuxDU, Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d.

**Taqrizchilar:** B.N. Navro’z-zoda - BuxDU, Servis sohası iqtisodiyoti kafedrası professori, i.f.d.  
F.M. Raxmatullayeva - BuxDU, Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, i.f.n.

## KIRISH

Har tomonlama kamol topgan yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynovchi fan iqtisodiyot fanining ushbu dasturi jamiyatning iqtisodiy negizi, uning tarkibiy qismlari, umumiqtisodiy qonunlar va kategoriyalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarning mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning amal qilish qonuniyatları, bozor iqtisodiyotining tarkib topish xususiyatlari, o'tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning natijalari, iqtisodiy o'sish va unga ta'sir etuvchi omillar, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tendentsiyalari kabi masalalarni qamrab olgan.

«Iqtisodiyot» fani talabalarni jamiyatda ro'y beradigan iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi. SHuningdek, bu fan jamiyatning har bir a'zosini g'oyaviy jihatdan yo'naltirish, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiy madaniyatini oshirishga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

## ASOSIY QISM

### “Iqtisodiyot” fanining predmeti va bilish usullari

Iqtisodiyot tushunchasi va uning qamrov jihatidan turlari. Iqtisodiy faoliyatning mazmuni. Takror ishlab chiqarish fazalari: ishlab chiqarish, taqsimot, ayrboshlash, iste'mol. Ehtiyojlarning mazmuni va ularning turkumlanishi. Ehtiyojlarning o'sib borishi qonuni. Iqtisodiy resurslarning mazmuni va turkumlanishi. Iqtisodiy resurslar va ehtiyojlarning qondirilish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik. Iqtisodiyot oldidagi muammolar.

Iqtisodiyotga oid bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi. Qadimgi SHarq va G'arb xalqlaridagi iqtisodiy g'oyalari. Iqtisodiyotning fan sifatida shakllanishidagi asosiy oqimlar: merkantilizm, fiziokratlar, ingлиз klassik iqtisodiy maktabi, marksizm va marjinalizm. Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy oqimlar.

Iqtisodiyot fanining predmeti to'g'risida turlicha yondashuvlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti. Iqtisodiy hodisa va jarayonlar. Moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar.

Iqtisodiyot fanining vazifalari. Iqtisodiyotning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Iqtisodiyot – barcha iqtisodiy fanlarning uslubiy poydevori va davlat iqtisodiy siyosatining ilmiy asosi ekanligi. Hozirgi zamon iqtisodiy tafakkurining shakllanishida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini tahlil qilish va bilishda iqtisodiyot nazariyasi fanining roli. Iqtisodiyot fanining talaba-yoshlar ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda va milliy istiqlol g'oyasini singdirishdagi ahamiyati.

Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar. Iqtisodiy qonunlarning turkumlanishi.

Iqtisodiy qonunlar va jarayonlarni ilmiy bilishning dialektik qoidalari. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganish usullari: ilmiy abstraktsiya, induktsiya va deduktsiya, tahlil va sintez, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, ikki tomonlama yondashuv, empirik usul va farazlardan foydalanish. Mikro va makroiqtisodiy tahlil. Iqtisodiy tahlilda matematik, statistik va grafik usullardan foydalanish. Pozitiv va normativ usullar.

### Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari

Ijtimoiy-iqtisodiyot taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli xil yondashuvlar: tarixiy-formatsion, madaniylashish (sivilizatsiya) darajasi, texnika va texnologik darajasi, iqtisodiy tizimlar o'zgarishi jihatidan yondashuv. Jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari. Ishlab chiqarish munosabatlari. Ishlab chiqarish usuli. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya. Sivilizatsiyaning tarixiy rivojlanish tiplari. Sivilizatsiyalarning almashuvi nazariyasi. Ishlab chiqarishning texnologik usuli. Oddiy kooperatsiya, manufaktura va yirik mashinalashgan ishlab chiqarish. Industrlashishgacha bo'lgan jamiyat, industrlashgan jamiyat, yuqori industrlashgan (axborotlashgan) jamiyat.

Iqtisodiy tizim tushunchasi. Iqtisodiy tizim modellari: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyotining bosqichlari: erkin raqobatga asoslangan va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti.

Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni: egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish. Mulk ob'ekti va sub'ekti. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy jihatlari.

Mulk shakllarining tasniflanishi. Davlat mulki, jamoa mulki, shaxsiy mulk, xususiy mulk va aralash mulk.

Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkchilikning o'rni. Mulkchilik shakllarini o'zgartirish usullari: milliyashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish. Davlat mulkini xususiyashtirishning usullari. O'zbekiston Respublikasida mulkchilikni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

### **Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi**

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning rivojlanishi. Bozor iqtisodiyotining sub'ektlari: uy xo'jaliklari, tadbirkorlik sektori, davlat sektori va bank. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor tizimining o'z-o'zini tartibga soluvchi mexanizmi. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, ularning umumiy tomonlari va farqlari. Zamonaviy bozor xo'jaligi modellari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida doimiy muammolarni hal qilish va resurslardan samarali foydalanish yo'llari.

Bozor iqtisodiyotining afzalliklari. Resurslarni taqsimlashning samaradorligi. Iqtisodiy faoliyat va tanlov erkinligi. Iqtisodiy sub'ektlar harakatining ta'minlanishi. Bozor iqtisodiyotining boshqa ijobjiy jihatlari. Bozor iqtisodiyotining asosiy ziddiyatlari va salbiy jihatlari.

"Bozor" va "bozor iqtisodiyoti" tushunchalarining o'zaro farqlanishi. Bozorning mazmuni va asosiy belgilari. Bozor mexanizmi. Bozorning ob'ektlari va sub'ektlari. Bozorning vazifalari. Bozorning turkumlanishi. Resurslar, mahsulotlar va daromadlarning doiraviy aylanish diagrammasi.

Bozor infratuzilmasi. Bozor infratuzilmasi muassasalarini guruhlash yo'nalishlari. Bozor infratuzilmasi tarkibi.

### **Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati**

Talab tushunchasi. Individual talab va bozor talabi. Talab qonuni. Giffen samarasi. Talab egri chizig'i. Talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: iste'molchi didi, bozordagi iste'molchilar soni, ularning pul daromadi, o'rnini bosuvchi tovarlar narxi, kelajakda narx va daromadlarning o'zgarishi ehtimoli. Oliy va past toifali tovarlar. Engel qonuni. Engel egri chizig'i.

Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklif egri chizig'i. Taklif miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar: resurslar narxi, ishlab chiqarish texnologiyasi, soliqlar va subsidiyalar, boshqa tovarlar narxi, narx o'zgarishining kutilishi, ishlab chiqaruvchilar soni. Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning xususiyatlari.

Talab va taklif miqdorlarining mos kelishi. Qisqa va uzoq davrlarda talabning o'zgarishi. Bozor muvozanati. Xususiy va umumiy muvozanatlik. Talab va taklif egiluvchanligi va ularni belgilab beruvchi omillar. Egiluvchanlik koeffitsentini hisoblash usullari.

Iste'molchi xatti-harakati nazariyasi. Iste'molchining afzal ko'rishi. Naflilik funktsiyasi. So'nggi qo'shilgan naflilik. Naflilikni maksimallashtirish qoidasi. Iste'molchining muvozanatli holati. Befarqlik egri chizig'i. Befarqlik kartasi. Iste'molchi byudjetining cheklanganligi. Byudjet chizig'i. Narx va daromadlar o'zgarishining iste'molchi tanloviga ta'siri.

### **Raqobat va monopoliya**

Raqobatning mohiyati va ob'ektiv asoslari. Raqobat mazmuniga turli tomondan yondashuv. Raqobatning vazifalari. Raqobatning turlari: tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat. Raqobat shakllari: sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopolika va sof monopolika. Raqobatlashish usullari: narx vositasidagi va narxsiz raqobat, g'irrom va halol raqobat. Demping narxlarni qo'llash.

Raqobat kurashining zamonaviy shakllari: mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni yangilash, xizmat sifati, reklama, servis, marketing va h.k.

Monopoliyaning mohiyati va uning vujudga kelishi sabablari. Ishlab chiqarish va kapitalning to'planishi va markazlashuvi. Monopoliyalarning turlari: sof monopoliya, oligopoliya, monopsoniya. Tabiiy monopoliyalar. Legal va sun'iy monopoliyalar. Lerner koeffitsenti. Monopolistik birlashmalar shakllari. Monopoliyalarning afzalliklari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. SHumpeter gipotezasi. Davlatning monopoliyaga qarshi tadbirlari. Rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi siyosat borasidagi tajribalar. Monopoliyaga qarshi qonunchilik.

O'zbekistonda raqobat muhitining kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar. Monopoliyaga qarshi qonunchilikning shakllanishi. Monopolistik korxonalarni tartibga solish usullari. Monopoliyaga qarshi siyosatning natijalari.

### **Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari**

Narxning mazmuni va uning ob'ektiv asoslari. Narx to'g'risidagi turli nazariyalar. Tovardagi ikki xil xususiyatlarning narxlardagi ifodasi. Narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning vazifalari.

Narx turlari: ulgurji va chakana narxlar. Nufuzli, demping va dotatsiyalangan narxlar. SHartnomaviy, erkin va tartibga solinuvchi narxlar. Hududiy, milliy va jahon bozori narxlari. Narx diapazoni. Narx pariteti.

Narx tashkil topishining bozor mexanizmi. Mukammal raqobat sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari. Sotuvchi va xaridor narxlari. Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Ommaviy taklif bo'yicha narx o'zgarishi. Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi. Ommaviy talab bo'yicha narxning o'zgarishi. Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi. "Ergashish" va "inkor etish" holatlari. Narx bo'yicha etakchilik.

Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari. Narxlarni erkinlashtirish yo'llari va bosqichlari.

### **Tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi**

Tadbirkorlik faoliyatining mazmuni. Tadbirkorlik faoliyati nazariyasining rivojlanish bosqichlari. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va rivojlanish shart-sharoitlari.

Tadbirkorlik faoliyatining shakllari: davlat, jamoa, xususiy, aralash va boshqa hosila shakllari. Kooperativ, xususiy va yakka tartibdagi tadbirkorlik. Korxona tadbirkorlik faoliyatining asosiy va boshlang'ich bo'g'ini. Korxonalar faoliyatining tashkil qilinishi. Aktsiyadorlik jamiyati va aktsiyadorlik kapitali. Aktsiya va uning turlari. Aktsiya kursi. Dividend va ta'sischilar foydasi. Nazorat paketi. Obligatsiyalar. Marketing, uning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Menejment — korxonalarni boshqarish tizimi sifatida. Menejmentning asosiy maqsadi va vazifalari.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada erkinlashtirilishi va rag'batlantirilishi.

Tadbirkorlik kapitalining mohiyati. Tadbirkorlik kapitali va uning harakatidagi ikki tomonlama xususiyatning namoyon bo'lishi. Tadbirkorlik kapitalining funktional shakllari: pul, unumli kapital va tovar. Kapitalning harakat bosqichlari. Tadbirkorlik kapitali turli shakllarining doiraviy aylanishi.

Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital, ularning farqli belgilari. Kapitalning aylanish vaqt va tezligi. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish: jismoniy, ma'naviy va iqtisodiy eskirishi va qayta tiklanishi. Amortizatsiya va uning normasi. Jadallahgan amortizatsiya. Asosiy va aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi va uning ko'rsatkichlari. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

### **Korxona (firma) xarajatlari va foydasи**

Ishlab chiqarish xarajatlarini tadqiq etishdagi yondashuvlar. Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari. Korxona ishlab chiqarish xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlarining mazmuni, tarkibi va

turlari. Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari. Ichki va tashqi xarajatlari. Me'yordagi foyda. Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlari. Doimiy, o'zgaruvchi va umumiy (yalpi) xarajatlarning grafikdagi tasviri. O'rtacha va umumiy xarajatlari. O'rtacha xarajatlarning egri chiziqlari. So'nggi qo'shilgan xarajatlar tushunchasi. Xarajatlarni minimallashtirish qoidasi:  $MP_L / PL = MP_A / PA = MP$  har qanday omil /  $P$  har qanday omil.

Qisqa va uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish xarajatlari. Natijalar o'zgarishiga unumdonlik pasayib borishi qonunining ta'siri. Ishlab chiqarish miqyosining ijobiy samarasi. Tannarx.

Korxona (firma) ning pul tushumlari va foydasi. Xarajatlari va daromadlar egri chizig'i. Zarar ko'rmaslik nuqtasi. Foydaning tarkib topish bosqichlari. Foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Mahsulot qiymati tarkibi. Yalpi foydaning taqsimlanishi. Iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasining farqlanishi. Sof foyda. Foyda normasi va massasi hamda ularni hisoblash. Foyda normasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Korxonalarning bankrot bo'lishi (sinishi) va sanatsiya qilinishi. Korxonalar foydasini maksimallashtirish sharti  $P=MC$  va uni ko'paytirish yo'llari. Foyda miqdorini ko'paytirishda moddiy resurslarni tejashning ahamiyati.

### **Ish haqi va mehnat munosabatlari**

YAratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari. "Ishlab chiqarishning uch omili", qo'shilgan omil unumdonligi va boshqa nazariyalar. Mazkur nazariyalarning kamchiliklari. YAratilgan mahsulotni taqsimlashning asosiy yo'naliishlari.

Ish haqi to'g'risida turlicha nazariyalar. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Nominal va real ish haqi. Real ish haqining darajasi va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Ish haqining tabaqlanishi. Ish haqini tashkil qilish shakllari va tizimlari. Tarif tizimi. Minimal ish haqi.

Mehnat munosabatlari. Mehnat shartnomalari. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o'zaro munosabatlari. Kasaba uyushmalarining ish haqi darajasini oshirish yo'llari. Ishchi kuchi talabi va taklifini o'zgartirish. Kasb bo'yicha malaka darajasini litsenziyalash. Jamoa shartnomalari va ijtimoiy sug'urta tizimi. Ochiq va yopiq turdag'i kasaba uyushmalarining ish haqi darajasiga ta'siri. Mehnat munosabatlarini tartibga solishda davlatning roli.

### **Agrar munosabatlar va agrobiznes**

Agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi xususiyatlari. Erning resurs sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari. Yerning tabiiy va iqtisodiy unumdonligi. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari. Yer mulkchilik va xo'jalik yuritish ob'ekti. Yerga egalik va yerdan foydalanish huquqi.

Yer rentasi nazariyasiga bo'lgan turli xil yondashuvlar va ularning tarixiy shakllari. Yer rentasining mazmuni va turlari: differentsial renta, absolyut renta, monopol renta, undirma sanoat va qurilish uchastkalaridan olinadigan renta. Ijara haqi. Yerning narxi va uni belgilovchi omillar.

Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majuasi va uning sohalari. Agrobiznes va uning turlari. Dehqon, fermer va shirkat xo'jaliklari. Agrofirma, agrosanoat birlashmasi, agrosanoat kombinasi.

O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'naliishlari. Yerga mulkchilik munosabatlari. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash choralar. SHaxsiy tomorqalarning kengaytirilishi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi tarkibiy tuzilishini takomillashtirish. Xo'jalik yuritishning samarali shakllarini rivojlantirish. Fermer xo'jaliklari yer maydonlari hajmini optimallashtirish. Qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish.

### **Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari.**

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va milliy iqtisodiyotning shakllanishi. Milliy iqtisodiyotning mazmuni va uning tuzilishi. Makroiqtisodiyot. Makroiqtisodiy tahlil va uning vazifalari. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

Milliy hisoblar tizimi. YAIMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv. YAIMni hisoblashga sarf-xarajatlar bo'yicha yondashuv. Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari. Investitsion sarflari. Davlat sarflari. CHet elliklarning sarflari. YAIMni hisoblashga daromadlar bo'yicha yondashuv.

Yalpi talab tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi talab egri chizig'i. Yalpi talab miqdoriga ta'sir etuvchi omillar: iste'mol sarflaridagi o'zgarishlar, investitsion sarflari, davlat sarflari, sofabSPORTdagi o'zgarishlar.

Yalpi taklif tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi taklif egri chizig'i. Yalpi taklif egri chizig'idagi yotiqliq, oraliq va tik kesmalar. Yalpi taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: resurslar narxining o'zgarishi, samaradorlikning o'zgarishi, huquqiy me'yorlarning o'zgarishi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida yalpi talabning qisqarishi hamda uni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar.

### **Iqtisodiy o'sish va milliy boylik**

Iqtisodiy o'sishning mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish sur'ati. «70 miqdori qoidasi». Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari. Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Iqtisodiy o'sishning omillari. Yalpi talab va yalpi taklifning iqtisodiy o'sishga ta'siri. Iqtisodiy o'sishni belgilovchi xususiy ko'rsatkichlar. Keyingi qo'shilgan ishlab chiqarish omillari unumdoorligi ko'rsatkichlari. Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillar.

Milliy boylik va uning tarkibiy qismlari. Moddiy-buyumlashgan, nomoddiy (intellektual) va tabiiy boylik.

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishi va iqtisodiy o'sish muammolari. Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tabiiy, moddiy va moliyaviy resurslardan tejab-tergab foydalanishning ahamiyati.

### **Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik**

Yalpi ishchi kuchining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Ishchi kuchini takror hosil qilish. Yalpi ishchi kuchining miqdor va sifat jihatdan aniqlanishi. FTTni ishchi kuchining sifat jihatdan takomillashuviga ta'siri. Nufus qonuni. Aholining tabiiy o'sishi. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning shakllari.

Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va taklif hamda uni aniqlovchi omillar. Ishchi kuchining qiymati. Ishchi kuchi bozorining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Fillips egri chizig'i. Ishchi kuchining ayrim sohalardan bo'shashi va uni qayta taqsimlashning bozor mexanizmi.

Ishchi kuchi bandligi to'g'risida turli xil nazariyalar. Neoklassik, keynscha, monetaristik, institutsional-sotsiologik maktab kontseptsiyalari. SHartnomaga asoslangan bandlik nazariyasi. Bandlik modellari. Moslashuvchan ishchi kuchi bozori kontseptsiyasi.

Ihsizlik va uning turlari. Friktsion, tarkibiy va tsiklik ishsizlik. Institutsonal, texnologik, hududiy, yashirin, turg'un ishsizlik. Ihsizlikning tabiiy darajasi. Ihsizlik darajasi va uni aniqlash. Ihsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. A.Ouken qonuni. Ihsizlik va inflyatsiyaning o'zaro bog'liqligi.

O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta'minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash borasida davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari.

### **Moliya tizimi va moliyaviy siyosat**

Moliyaning mazmuni va ahamiyati. Moliyaviy munosabatlarning ob'ektlari va sub'ektlari. Moliyaning vazifalari. Moliya tizimi va uning bo'g'inalari. Davlat byudjeti va uning moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi.

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi hamda ularning egri chizig'i. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari, ularning iqtisodiyotga ta'siri. Davlat ichki qarzi. Davlat krediti. Davlat tashqi qarzi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va uning vazifalari. Soliq solish tamoyillari. Soliq imtiyozlari. Soliqlarning turkumlanishi. Laffer egri chizig'i. Soliq yuki va uning darajasini aniqlash. Soliq yukining taqsimlanishi. Moliyaviy siyosat. Fiskal (soliq-byudjet) siyosat.

O'zbekistonda soliq tizimining soddalashtirilishi va unifikatsiya qilinishi. Soliq sohasini yanada erkinlashtirishning asosiy yo'nalish va natijalarini.

### **Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli**

Pul muomalasi. Pul tizimi va uning tarkibiy qismlari. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillar. Pul muomalasi qonunlari. Pulning aylanish tezligi. Pul miqdorini aniqlashga turlicha yondashuvlar. Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari. Inflyatsiya darajasi va sur'ati. Talab va taklif inflyatsiyasi. Inflyatsiya turlari: o'rmalab boruvchi, jadal va giperinflyatsiya. Inflyatsyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati.

Kreditning mohiyati, vazifalari va turlari. Kredit munosabatlarining ob'ektlari va sub'ektlari. Kredit resurslarining manbalari. Kredit berish tamoyillari. Foiz stavkasi va uning darjasini aniqlovchi omillar. Kredit-pul tizimini davlat tomonidan tartibga solish.

O'zbekistonda milliy valyutani mustahkamlash siyosatining amalga oshirilishi. So'mning xarid quvvatini oshirib borish va barqarorligini ta'minlash. Inflyatsiyaga qarshi aniq o'ylangan siyosat o'tkazish. Pul miqdorining o'sishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borish. Milliy valyuta almashuv kursining barqarorligiga erishish.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. SHodmonov SH.SH., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. – 728 bet.
2. O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «SHarq», 2006. – 480 bet.
3. Stankovskaya I.K., Strelets I.A. Ekonomicheskaya teoriya. Uchebnik. 3-e izd., ispr. – M.: «Eksmo», 2009. – 448 str.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 7 fevral, 2017 yil, Toshkent shahri
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali ma'ruza 2020-yil 7-dekabr.-T.: "O'zbekiston" NMIU,2020.
3. Ozbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz 2021-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari 2022 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // O'zbekiston Milliy axborot agentligi. / Xalq so'zi. 2020 yil, 25 yanvar

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. / Xalq so‘zi. 2021 yil, 23 yanvar

8.SHodmonov SH., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2008. – 320 bet

9. SHodmonov SH., G’afurov U. Iqtisodiyot asoslari. Ilmiy-ommabop nashr. – T.: TDIU, 2007. – 192 bet

10. SHodmonov SH., G’afurov U. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Ilmiy-ommabop nashr. – T.: TDIU, 2007. – 76 bet

11. Nosova S.S., Novichkova V.I. Ekonomicheskaya teoriya dlya bakalavrov. Uchebnoe posobie. - M.: KNO RUS, 2009. – 368 str.

12. Xudokormov A.G. Ekonomicheskaya teoriya: Noveyshie techeniniya Zapada. - M.: INFRA-M, 2009. – 416 str.

### **Internet saytlari**

1. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasining rasmiy sayti.
2. [www.aza.uz](http://www.aza.uz) – O’zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
3. [www.ceep.uz](http://www.ceep.uz) – O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.

## «IQTISODIYOT”fanidan nazorat savollari

### Variant №1

1. Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o’tishning xususiyatlari.

**Tayanch iboralar:** boshqarishning ma’muriy usullarini tugatish va iqtisodiy jarayonlarni bozor mexanizmi orkali o’z-o’zini boshqarishga o’tish, davlat mulki monopoliyasini tugatish va mulkchilikning turli shakllarining vujudga kelishi.

2.Bozor iqtisodiyoti va uning sub’ektlari.

**Tayanch iboralar:** bozor iqtisodiyoti tushunchasi, bozor sub’ektlari.

3.Yalpi taklif egri chizig’i.

**Tayanch iboralar:** gorizontal, oraliq, vertikal qismlari.

## «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

### Variant №2

1. O’zbekiston Respublikasida xususiylashtirish jarayonlarining bosqichlari.

**Tayanch iboralar:**birinchi bosqichning vazifalari, ikkinchi bosqichning vazifalari, uchinchi bosqichning vazifalari, turtinchi bosqichning vazifalari.

2.Bozor iqtisodiyotining belgilari.

**Tayanch iboralar:** mulkchilikning turli tuman shakllari, iqtisodiy erkinlik (tadbirkorlik va tanlov erkinligi), iqtisodiy manfaatlarning rag’batlantirish, davlatning cheklangan roli.

3.Yalpi talab va yalpi taklif.

**Tayanch iboralar:** yalpi talab tushunchasi va egri chizig’i, yalpi taklif tushunchasi va egri chizig’i, makroiqtisodiy muvozanat.

## «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

### Variant №3

1. Tovar va uning xususiyatlari.

**Tayanch iboralar:** tovar tushunchasi, tovar nafliligi va qiymati.

2.Bozor iqtisodiyotining afzalligi va cheklanganligi.

**Tayanch iboralar:** resurslarni va mahsulotlarning samarali taqsimlash, erkinlik, ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta’minlash, ijtimoiy tabaqalanishning va daromadlar tengsizligining kuchayishi, ijtimoiy iste’mol xarakteridagi ne’matlar bilan ta’minlay olmasligi, atrof muhit va ekologiyani muxofaza qilish mexanizmining yo’qligi.

3.Iste’mol va jamg’armaning mazmuni.

**Tayanch iboralar:** Iste’mol tushunchasi va uning egri chizig’i, jamg’arma tushunchasi va uning egri chizig’i.

## «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

### Variant №4

1. Pul va uning vazifalari.

**Tayanch iboralar:** pulning mohiyati, qiymat o’lchovi, muomila vositasi va jamg’arish vositasi vazifalari

2.Bozor iqtisodiyotining o’z -o’zini boshqarish mexanizmi

**Tayanch iboralar:** raqobat, baho, talab va taklif.

3.Iste’mol va jamg’arma ko’rsatkichlari.

**Tayanch iboralar:** iste’mol va jamg’armaga o’rtacha moyillik, iste’mol va jamg’armaga oxirgi moyillik.

## «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

### Variant №5

1.2009-2012 yillarga mo’ljallab qabul qilingan inqirozga qarshi choralar dasturining mohiyati va vazifalari.

**Tayanch iboralar:** korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish, milliy

raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan chora tadbirlar.mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari tannarxini pasaytirishning asosiy yo'nalishlari.

2.Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning xususiyatlari.

**Tayanch iboralar:** boshqarishning ma'muriy usullarini tugatish va iqtisodiy jarayonlarni bozor mexanizmi orkali o'z-o'zini boshqarishga o'tish, davlat mulki monopoliyasini tugatish va mulkchilikning turli shakllarining vujudga kelishi.

3. Investitsiya, uning turlari va hajmiga ta'sir etuvchi omillar.

**Tayanch iboralar:** investitsiya tushunchasi, moddiy, moliyaviy va intelektual investitsiyalar, foyda normasi, xuquqiy me'yorlar.

#### «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

##### **Variant №6**

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va uning shakllari.

**Tayanch iboralar:** xalqaro iqtisodiy integratsiya tushunchasi, erkin savdo xududlari, bojxona ittifoqi, to'lov ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy va valyuta ittifoqi.

2.Bozor va uning tarkibiy tuzilishi.

**Tayanch iboralar:** bozor tushunchasi, bozor ob'ekti va sub'ekti.

3.Iqtisodiy o'sish va uning turlari.

**Tayanch iboralar:** iqtisodiy o'sish tushunchasi, ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish.

#### «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

##### **Variant №7**

1.O'tish davrida agrar islohotlarni amalga oshirish haqida yozing.

**Tayanch iboralar:** erga mulkchilik masalasi, fermer xo'jaligi, qishloq infratuzilmasi;

2.Bozorning turlari va ularning turkumlanishi.

**Tayanch iboralar:** iqtisodiy mazmuni, ayirboshlash ob'ektlari, xududiy belgilari raqobatning etuklik darajasi va sub'ektlari bo'yicha turkumlash.

3.Iqtisodiy o'sishning mezonlari va ko'rsatkichlari.

**Tayanch iboralar:** FTT, iqtisodiy siyosat, aholi jon boshiga mahsulot, YAMM, YAIM, SMM.

#### «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

##### **Variant №8**

1.O'tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash to'g'risida O'zbekistonda qanday islohotlar olib borilmoqda?

**Tayanch iboralar:** ijtimoiy siyosat, kam ta'minlanganlar va yordamga muxtoj kishilar, xayriya tashkilotlarining roli va davlatning asosiy vazifalar;

2.Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.

**Tayanch iboralar:** bozor infratuzilmasi tushunchasi, ishlab chiqarish, savdo sotiq, moliya kredit, xizmat ko'rsatuvchi va axborot tizimi infratuzilmasi.

3.Iqtisodiy o'sish omillari.

**Tayanch iboralar:** FTT, yalpi talab va yalpi taklif, samaradorlik.

#### «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

##### **Variant №9**

1.Bozor iqtisodiyotiga o'tishda ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish to'g'risida.

**Tayanch iboralar:** o'tish davri, ko'p ukladli iqtisodiyot, iqtisodiy erkinlik;

2.O'tish davri va uning belgilari.

**Tayanch iboralar:** o'tish davri tushunchasi, uning zarurligi,turlari, qonuniyatları.

3.Milliy boylik va uning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.

**Tayanch iboralar:** Tabiiy va ma'naviy boyliklar,milliy daromad, yaratilgan ne'matlar.

## «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

### Variant №10

1. Iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy oqimlar.

**Tayanch iboralar:** merkantalizm, fiziokratlar, klassik iqtisodiy g’oyalar, marjinalizm.

2. Bozor iqtisodiyotiga o’tishning turli modellari.

**Tayanch iboralar:** rivojlangan, rivojlanayotgan va MDH mamlakatlarining modellari.

3. Makroiqtisodiy muvozanatlik va uning turlari.

**Tayanch iboralar:** makroiqtisodiy muvozanatlik tushunchasi, umumiylar va xususiy muvozanatlik.

## «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

### Variant №11

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanidagi xozirgi zamон iqtisodiy oqimlari.

**Tayanch iboralar:** keyschilar ta’limoti, monetarizm, liberalizm, institutsionalizm.

2. Bozor iqtisodiyotiga o’tishning o’zbek modeli va uning xususiyatlari.

**Tayanch iboralar:** milliy an’analari, urf-odatlar, demografik vaziyat va tamoyillar

3. Makroiqtisodiy mutanosiblik va uning turlari.

**Tayanch iboralar:** makroiqtisodiy mutanosiblik tushunchasi, umumiylar, tarmoq ichidagi, tarmoqlararo va boshqa mutanosibliklar.

## «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

### Variant №12

1. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi.

**Tayanch iboralar:** iqtisodiyot tushunchasi, iqtisodiy resurslar va uning cheklanganligi, ehtiyojlar va uning cheksizligi.

2. O’zbekistonda iqtisodiy islohotlar kontseptsiysi va strategiyasining ishlab chiqilishi.

**Tayanch iboralar:** kontseptsiya va strategiya tushunchalari hamda ularning yo’nalishlari.

3. Iqtisodiy tsikl va uning fazalari.

**Tayanch iboralar:** iqtisodiy tsikl tushunchasi, inqiroz, turg’unlik, jonlanish va yuksalish fazalari.

## «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

### Variant №13

1. Iqtisodiy resurslar va uning turlari.

**Tayanch iboralar:** iqtisodiy resurslar tushunchasi, er,kapital, ishchi kuchi va xom ashyo.

2. Talab tushunchasi va uning hajmiga ta’sir qiluvchi omillar.

**Tayanch iboralar:** iste’molchi didi, soni, daromadi, narx va boshqalar

3. Iqtisodiy inqiroz va uning turlari.

**Tayanch iboralar:** iqtisodiy inqiroz tushunchasi, tarkibiy, agrar va moliyaviy inqirozlar.

## «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

### Variant №14

1. Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar va uning tarkibi.

**Tayanch iboralar:** ehtiyojlar tushunchasi, ehtiyojlarning tarkibiy tuzilishi.

2. Taklif tushunchasi va uning hajmiga ta’sir qiluvchi omillar.

**Tayanch iboralar:** bozor baholari, resurslar bahosi va unumdonligi, soliqlar darajasi, ishlab chiqaruvchilar soni, resurslarni o’rnini bosuvchanligi, infliyatsion kutilish.

3. Ishchi kuchining ijtimoiy – iqtisodiy tavsifi.

**Tayanch iboralar:** ishchi kuchi, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, ishchi kuchi iqtisodiy resurs sifatida.

## «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

### Variant №15

1. Iqtisodiy ehtiyojlarni turkumlash va uning turlari.

**Tayanch iboralar:** ehtiyojlar tizimi, ehtiyojlarning ob'ektiv jihatdan turlari, ehtiyojlarning sub'ektiv jihatdan turlari.

2. Talab qonuni.

**Tayanch iboralar:** talab tushunchasi, talab qonunining mazmuni.

3. Ishsizlik darajasi va uning turlari.

**Tayanch iboralar:** tabiiy ishsizlik, davriy ishsizlik, friktsion ishsizlik, yashirin ishsizlik.

#### «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

##### **Variant №16**

1. Ehtiyojlarning yuksalishi va uning jihatlari.

**Tayanch iboralar:** ehtiyojlar yuksalishining tushunchasi, ehtiyojlar miqdorining o'sishi, yangi ehtiyojlarning paydo bo'lishi, o'rinosar ehtiyojlar, ehtiyojlar nisbatining o'zgarishi, ehtiyojlarning yuksalish qonuni.

2. Taklif qonuni.

**Tayanch iboralar:** taklif tushunchasi, taklif qonunining mazmuni.

3. Ishchi kuchi bozori.

**Tayanch iboralar:** ochiq (qonuniy) va yashirin (noqonuniy) bozor, ishchi kuchiga talab va taklif, ish haki, mehnat birjasи.

#### «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

##### **Variant №17**

1. Iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy oqimlar.

**Tayanch iboralar:** merkantalizm, fiziokratlar, klassik iqtisodiy g'oyalar, marjinalizm.

2. Talab va taklifning o'zgaruvchanligi.

**Tayanch iboralar:** talab va taklifning bahosi, daromad hamda boshka omillari bo'yicha o'zgaruvchanligi, talab va taklif egri chizig'i.

3. Oukenъ qonuni.

**Tayanch iboralar:** ishsizlikning haqiqiy va tabiiy darajalari, yalpi ichki mahsulot.

#### «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

##### **Variant №18**

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanidagi xozirgi zamon iqtisodiy oqimlari.

**Tayanch iboralar:** keyschilar ta'limoti, monetarizm, liberalizm, institutsionalizm.

2. Talab va taklifning mos kelishi. Bozor muvozanati

**Tayanch iboralar:** muvozanatli baho va ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi, xususiy va umumiy muvozanatlik, bozor muvozanatining iqtisodiyotga ta'siri.

3. Moliyaning mohiyati va vazifalari.

**Tayanch iboralar:** moliya tushunchasi, taqsimlash, rag'batlantirish, jamg'arish va axborot

#### «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

##### **Variant №19**

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti.

**Tayanch iboralar:** iqtisodiy munosabatlар, iqtisodiy xodisalar, iqtisodiy jarayonlar

2. Raqobat va uning ob'ektiv asoslari.

**Tayanch iboralar:** raqobat tushunchasi, tovar-pul munosabatlari, xuquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar.

3. Moliya tizimi va uning tarkibiy qismlari.

**Tayanch iboralar:** moliya tizimi tushunchasi, davlat byudjeti, ijtimoiy ta'minot muassasalari, sug'urta idoralari va boshqalar.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №20**

1.Iqtisodiy qonunlar va uning turlari.

**Tayanch iboralar:** iqtisodiy qonun tushunchasi, umumiylar, xususiy va oraliq iqtisodiy qonunlar.

2.Raqobatning shakllari, turlari va usullari.

**Tayanch iboralar:** erkin, monopollashgan, tarmoq ichidagi, tarmoqlar aro raqobat hamda narx vositasidagi va narxsiz raqobat usullari.

3.Davlat byudjeti va uning tarkibi.

**Tayanch iboralar:** xarajatlar va daromadlar qismi, soliqlar, to'lovlari, ijtimoiy va iqtisodiy xarajatlar.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №21**

1.Iqtisodiy kategoriyalar va uning turlari.

**Tayanch iboralar:** iqtisodiy kategoriya tushunchasi, umumiylar, xususiy va oraliq iqtisodiy kategoriyalar.

2. Monopoliya nazariyasi.

**Tayanch iboralar:** monopoliya tushunchasi va uning turlari.

3.Oila byudjeti.

**Tayanch iboralar:** oila daromadlari va xarajatlari.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №22**

1.Iqtisodiy xodisalarni o'rganish usullari.

**Tayanch iboralar:** ilmiy abstraktsiya, taxlil va sintez, tarixiylik va mantiq usuli, eksperiment, mikro va makroiqtisodiy taxlil, taqqoslash, matematik, statistik, jadval va grafik.

2. Narxning mohiyati va vazifalari.

**Tayanch iboralar:** narx tushunchasi, qiymat o'lchovi, tartibga solish, ijtimoiy himoya, raqobat vositasi vamuvozanatlikni ta'minlash vazifalari.

3.Byudjet taqchilligi va uni bartaraf qilish yo'llari.

**Tayanch iboralar:** xarajatlarning daromadlardan ortib ketishi, soliq tizimidagi o'zgarishlar, byudjet tarkibini o'zgartirish.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №23**

1.Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari.

**Tayanch iboralar:** nazariy, uslubiy va amaliy vazifalar.

2. Narx turlari va ularga tavsifnomasi.

**Tayanch iboralar:** ulgurji, chakana, nufuzli, demping, milliy, jahon narxlari va boshqalar

3.Soliqlar, ularning vazifalari va turlari.

**Tayanch iboralar:** tug'ri va egri soliqlar, tartibga solish, byudjetni to'ldirish, soliq imtiyozlari.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №24**

1. Ishlab chiqarish jarayoni va uning tarkibi.

**Tayanch iboralar:** moddiy va ma'naviy ne'matlar, iqtisodiy faoliyat.

2. Tadbirkorlik faoliyati va uning vazifalari.

**Tayanch iboralar:** tadbirkorlik tushunchasi, uning biznesdan farqi va vazifalari.

3.Soliq solish modeli, Laffer egri chizig'i.

**Tayanch iboralar:** Solik, soliq stavkasi, soliq chegaralari, soliq turlari, soliq tizimining adolatliligi.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №25**

1.Ishlab chiqarish omillari va ularning turkumlanishi.

**Tayanch iboralar:** ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omillari, ishlab chiqarish omillarining marksistik hamda marjinalistik turkumlanishi.

2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari.

**Tayanch iboralar:** individual, sherikchilik, xissadorlik jamiyati, davlat tadbirkorligi.

3.Davlatning moliyaviy siyosati.

**Tayanch iboralar:** moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash, moliyalashtirish.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №26**

1.Iqtisodiy faoliyat va uning turlari.

**Tayanch iboralar:** iqtisodiy faoliyat tushunchasi, ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatish, ayirboshlash va tadbirkorlik faoliyati.

2. Marketingning mohiyati va vazifalari.

**Tayanch iboralar:** marketing tushunchasi, bozor holatini o’rganish, mijoz to’plash va boshqalar

3.Pul muomalasi va uning qonuni.

**Tayanch iboralar:** tovar va xizmatlarning o’rtacha narxi va miqdori, pul aylanish tezligi.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №27**

1.Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning egri chizig’i.

**Tayanch iboralar:** ishlab chiqarish imkoniyatlari tushunchasi, ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig’i tasviri.

2.Korxonalarни boshqarishda menejment tizimi.

**Tayanch iboralar:** menejment tushunchasi, menejer va uning vazifalari, korporatsiyalar.

3.O’zbekistonda pul tizimi.

**Tayanch iboralar:** pul birligi, pul emissiyasi, pul shakllari. Narx masshtabi, pul tizimi institutlari.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №28**

1.Mehnat unumdorligi va uni belgilovchi omillar.

**Tayanch iboralar:** mehnat unumdorligi, tabiiy sharoit, texnika-texnologiya darajasi, ishlovchilarning kasbi va maxorati.

2.Tadbirkorlik kapitalining mohiyati.

**Tayanch iboralar:** kapital, boshlang’ich kapital, asosiy va aylanma kapital, ustav kapitali.

3.Inflyatsiya, uning sabablari va turlari.

**Tayanch iboralar:** pulning qadrsizlanishi, muomala uchun zarur bo’lgan pul miqdori, o’rmalovchi, suzib yuruvchi va gipperinflyatsiya.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №29**

1.Ishlab chiqarish samaradorligi va uning ko’rsatkichlari.

**Tayanch iboralar:** ishlab chiqarish samaradorligi tushunchasi, samaradorlik ko’rsatkichlari, samaradorlikni hisoblash formulasi.

2.Kapitalning aylanishi. Asosiy va aylanma kapital.

**Tayanch iboralar:** kapitalning aylanish tezligi, asosiy va aylanma kapital tushunchasi.

3.Kredit tushunchasi va uning turlari.

**Tayanch iboralar:** foiz, bank krediti, iste’mol krediti, davlat krediti, tadbirkorlik krediti.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №30**

1.Iste'molchi xulqi nazariyasi.

**Tayanch iboralar:** naflilikning oshirish qoidasi, baho va daromadlar o'zgarishning iste'molchi tanloviga ta'siri.

2.Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va uning eskirishi.

**Tayanch iboralar:** asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish, asosiy kapitalning jismoniy va ma'naviy eskirishi.

3.Kreditning roli va tamoyillari.

**Tayanch iboralar:** ta'minlanganlik, qaytarishlilik, muddatlilik, foiz olish, maqsadli foydalanish.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №31**

1.Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari.

**Tayanch iboralar:** jami ijtimoiy mahsulot, yalpi va ichki milliy mahsulot, sof milliy mahsulot,milliy daromad oraliq va pirovard mahsulot, zaruriy va qo'shimcha mahsulot.

2.Ishlab chiqarish xarajatlari va ularning turlari.

**Tayanch iboralar:** ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi, ichki,tashqi va boshqa xarajatlar

3.O'zbekistonda bank tizimi.

**Tayanch iboralar:** davlat va tijorat banklari, banklarning turlari va asosiy vazifalari.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №32**

1.Iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli xil yondashuvlar.

**Tayanch iboralar:** formatsion yondashuv, texnologik yondashuv, madaniylashgan yondashuv.

2.Foya va uning turlari.

**Tayanch iboralar:** foya tushunchasi, iqtisodiy,me'yoriy va sof foya

3. Markaziy bank va unig vazifalari.

**Tayanch iboralar:** pul-kredit siyosatini amalga oshirish, nazorat, kredit berish, valyutalarini ayirboshlash va boshqalar.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №33**

1.Iqtisodiy tizimlar va uning modellari.

**Tayanch iboralar:** iqtisodiy tizim tushunchasi, an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy buyruqbozli iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti va aralash iqtisodiyot.

2. Korxonalarni sanatsiya qilish, uning mazmuni va amalga oshirish sharoitlari.

**Tayanch iboralar:** muhim korxonalarni molivaviy quvvatlash, qarzlarni muzlatish, iqtisodiy sog'lomlashtirish, tashqi boshqaruv tizimi.

3.Iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati, zarurligi va maqsadlari.

**Tayanch iboralar:** iqtisodiy siyosat, Iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmlari, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №34**

1.Iqtisodiy munosabatlar tizimi.

**Tayanch iboralar:** ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol munosabatlari.

2.Ish xaqi va uning shakllari.

**Tayanch iboralar:** nominal va real ish xaqi, vaqtbay va ishbay ish xaqi.

3. Iqtisodiyotni tartibga solishning usullari va vositalari.

**Tayanch iboralar:** bevosita va bilvosita usul, bozor mexanizmi, soliq, kredit va boshqalar.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №35**

1.Ishlab chiqarish usuli va ijtimoiy iqtisodiy formatsiya.

**Tayanch iboralar:** ishlab chiqarish usuli tushunchasi (ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari), ijtimoiy iqtisodiy formatsiya tushunchasi.

2.Ish xaqini to’lash shakllari va turlari.

**Tayanch iboralar:** ishbay va vaqtbay tizim, oddiy vaqtbay, mukofotli vaqtbay, oddiy ishbay, progressiv va regressiv ishbay, tabaqlashtirilgan vaakkort tizimi.

3.Davlatning iqtisodiy roli.

**Tayanch iboralar:** iqtisodiyotning o’zgaruvchanligi, iqtisodiyotni tartibga solish zarurligi, Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №36**

1.Mulkchilik munosabatalari va uning jihatlari.

**Tayanch iboralar:** Mulkchilik munosabatalarining mohiyati, egalik qilish, foydalanish va tassaruf qilish, tushunchalarining mazmuni.

2.Ish xaqining tabaqlanishi.

**Tayanch iboralar:** ish sharoiti, ish joyi xududi, ishchilar tajribasi va kvalifikatsiyasi.

3.Aholi daromadlari, uning turlari va shakllanish manba’lari.

**Tayanch iboralar:** nominal va real daromadlar, ish xaqi, tadbirkorlik faoliyati, nafaqa, stipendiya, mukofot.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №37**

1.Mulk ob’ektlari va sub’ektlari.

**Tayanch iboralar:** mulk ob’ektlari tushunchasi, mulk sub’ektlari tushunchasi.

2.Mehnat munosabatlari va uning tarkibi.

**Tayanch iboralar:** ish beruvchi, yollanuvchi, ish xaqi, ishchi kuchi bozori, mehnat shartnomasi.

3.Aholi turmush darajasini va uning ko’rsatkichlari.

**Tayanch iboralar:** YAIM va YAMM ning aholi boshiga ulushi, iste’molchilik savati, aholi daromadlari, inflyatsiya.

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №38**

1.Mulkchilikning asosiy shakllari.

**Tayanch iboralar:** mulk tushunchasi, mulk shakllari: davlat mulki, xususiy mulk, shaxsiy mulk.

2. Jamoa shartnomalari va ijtimoiy sug’urta tizimi.

**Tayanch iboralar:** shartnomalar tarkibi, shartnomalar asosidagi munosabatlari, ijtimoiy sug’urtaga to’lovlar, ajratmalar, jamg’armalar kasaba uyushmalari.

3.Daromadlar tengsizligi va ularning sabablari.

**Tayanch iboralar:** imkoniyatlar, bilim va qobiliyat darajalarining tengsizligi, turli faoliyat bilan shug’ullanish, iqtisodiyotdagি tarkibiy va tizimiy o’zgarishlar

«IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

**Variant №39**

1.Mulkni o’zlashtirish usullari.

**Tayanch iboralar:** ijara berish, qarzga berib foiz olish, ishchi kuchidan daromad olish, qimmatiga sotish, o’z mulkiga tayanib tadbirkorlik qilish.

2. Agrar munosabatlari va uning xususiyatlari.

**Tayanch iboralar:** agrar munosabatlar ob'ektlari va sub'ektlari, dexqon, fermer va shirkat xo'jaliklari.

3.Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi.

**Tayanch iboralar:** tabakalashtirilgan solik solish, tovon to'lash siyosati, ishsizlik bo'yicha nafaqlar, xayr ehson dasturlari.

#### «IQTISODIYOT” fanidan nazorat savollari

##### Variant №40

1. Mulk shakllarini o'zgartirish usullari.

**Tayanch iboralar:** milliyashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish.

2. Er rentasi va uning turlari.

**Tayanch iboralar:** absolyut, differentsiyal, monopol renta, qazib oluvchi sanoatdan olinadigan qurilish uchastkalaridan olinadigan renta.

3.Jaxon xo'jaligi va uning rivojlanishi.

**Tayanch iboralar:** xalqaro savdo, jaxon bozori, jaxon xo'jaligi tizimi.

### IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY MA'LUMOT OLISH BO'YICHA KIRISH SINOVLARI BAHOLASH MEZONLARI

Ikkinci va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kirish sinovlari suhbat shaklida o'tkaziladi va 4 tadan savol bo'ladi. Har bir savolning javobi eng ko'pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.

Abituriyentning suhbatdagi javobiga qo'yiladigan talablar	Baholash ballari
<b>a)</b> berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qaror qabul qilsa, o'z fikrini tg'liq, ravon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa.	22-25
<b>b)</b> berilgan savolni yetarli darajada bo'lsa, uning moxiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolining nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy ) yondashsa, xulosalar chiqara olsa.	19-21
<b>d)</b> berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, grammatic xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa.	14-18
<b>e)</b> berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob yozmaslik.	0-13

#### Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

